
MAYDZURU MERI RISHTONLIK TALABALARNI QABUL QILDI

So'nggi yillarda Yaponiya va Rishton tumani o'rtasidagi hamkorlik kengayib bormoqda. 2019 yilda Rishton tumani hokimi Suffhonjon Soliev Yaponiya mamlakatiga qilgan tashrifi chog'ida Maydzuru shahri bilan imzolagan memorandum ushbu hamkorlik debochasi bo'lgan edi. Ushbu hamkorlik natijasida ko'plab natijalarga erishilmoqda. Xususan, yaqinda Maydzuru hokimligi vakillari tumanida bo'lib, bir qator masalalar bo'yicha kelishuvga erishilgan edi.

Sir emaski, bugungi kunda Yaponiyada 200 dan ortiq rishtonlik yoshlar turli o'quv dargohlarida tahsil olishmoqda. Kecha Maydzuru shahri meri Ryozo Tamati uch nafar Rishtonlik talabalarni qabul qildi.

2022-12-10 11:47:08